



Scientific Journal  
**RESEARCH  
AND EDUCATION**



ISSN: 2181-3191

Scientific Journal Impact Factor: 4.628

- Economics
- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Medical Sciences
- Arts and Culture
- Technical Sciences
- Philological Sciences
- Pedagogical Sciences
- Psychological Sciences
- Social Sciences and Humanities

2022/9

VOLUME 1, ISSUE 9

RESEARCHEDU.UZ  
RESEARCHEDU.ORG



ISSN 2181-3191  
VOLUME 1, ISSUE 9  
DECEMBER 2022



[www.researchedu.uz](http://www.researchedu.uz)

**“RESEARCH AND EDUCATION” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 9, DECEMBER, 2022**

**EDITOR-IN-CHIEF**

**X. Idrisov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana State University*

**EDITORIAL BOARD**

**I. Urzabayev**

*Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University*

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldashova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

**A. Juraev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Agency of the Republic of Uzbekistan for Plant Quarantine and Protection, Head of the Andijan Regional Department*

**A. Turdaliev**

*Associate Professor, Doctor of Biological Sciences, Fergana State University*

**N. Mamadjonova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**M. Rakhmonova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**U. Mirzayev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**A. Rasulov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers*

**Editorial Secretary: J. Eshonkulov**

## XALQ TA'LIM TIZIMI MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBINING NAZARIY-USLUBIY MUAMMOLARI

**Norbekov Davronbay Eshmuradovich**

Toshkent moliya instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti

**Narbekova Gulruh Davronbayevna**

Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi,  
(g.narbekova umail.uz)

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda byudjet tizimi byudjetlari ijrosiga oid moliyaviy axborotlarning ochiqqligi va shaaffoqligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, zamon talablariga mos ravishda qo'shimcha sharoitlarni yaxshilash maqsadida xalq ta'lim tizimi muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va sarflash yo'nalishlarini tadqiq etishning zarurligi, nazariy-uslubiy muammolari bayon qilingan. Maqolada xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining nazariy-uslubiy muammolarni o'rganish va mablag'lar harakati bo'yicha tahliliy axborotlarni shakllantirishda buxgalteriya axborotlaridan foydalanishning ustuvor jihatlari asoslab berildi. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni samarali boshqarish va ularning hisobi uslubiyotini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** axborotlar, byudjetdan tashqari jamg'arma, daromad, haqiqiy xarajatlar, kassa xarajatlari, pul mablag'lari.

### KIRISH

Bugungi kunda yosh avlodni intellektual bilim salohiyatining ortishi, zamonaviy talablarga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, hamda xodimlarning moddiy ehtiyojlarini ortib borayotganligini hisobga olib xalq ta'lim tizimi muassasalarini moliyaviy jihatdan ta'minlashga byudjetdan moliyalashtirishning ulushi ortib bormoqda. Xalq ta'lim tizimi muassasalari davlat sektorining eng muhim sohalaridan sanalib, 2022 yilda umumiy ta'limga ajratilgan xarajatlar 30823,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> "Fuqarolar uchun byudjet" 2021 yil BMTTD, 2021 ([www.uz.undp.org](http://www.uz.undp.org))

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "So'nggi yillarda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa - chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishning poydevorini yaratishdan iborat." Davlat byudjeti xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, soliq byudjet yukini kamaytirish va davlat sektoridagi muassasalarni byudjetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish borasida qator islohotlarni amalga oshirish eng zarur masalalardan sanalanadi. Bu o'z navbatida, davlat sektoridagi muassasalarda byudjet va byudjetdan tashqari moliyalashtirishning maqsadli va manzilliligi hamda mablag'lar sarflanishiga oid axborotlarning ochiqligi va ishonchliligini ta'minlash bo'yicha tizimli izlanishlar olib borishni taqozo etadi.<sup>2</sup> Bu esa, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va tasarruf etish, ularning hosil bo'lish manbalari yuzasidan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish, muammolarni o'rganish va uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan izlanishlar olib borish zarurligini keltirib chiqarmoqda.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish davlat byudjeti xarajatlarini kamaytirish, xalq ta'lim tizimi muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shu sababdan, mazkur mavzuda ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish zarurati tug'iladi.

Mazkur mavzuda tadqiqot olib borgan mamlakatimiz olimlaridan S.Mehmonov byudjet tashkilotlari hisobi amaliyotida qator muammolar yuzaga kelayotganligi, keltirilgan muammolarning yechimi byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini samarali yo'lga qo'yish orqali byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli va oqilona sarflanishi ta'minlanishini mustahkamlaydi deya fikr bildirganlar.<sup>3</sup>

Shuningdek, A.Ostonokulov o'zining ilmiy maqolalarida byudjet tizimidagi islohotlarni amalga oshirishda davlat sektoridagi muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi uslubiyotini takomillashtirish bilan bog'liq vazifalarni ko'rsatib bergan.<sup>4</sup> Davlat sektoridagi muassasalarning moliya yili davomida foydalanilmay qolgan byudjetdan tashqari mablag'larini kelgusi yil uchun smetalarni tuzishda qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yilida oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish

<sup>2</sup> "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi". 29.12.2020

<sup>3</sup> S.U.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari" Iqtisod va moliya.2015 yil 10-son.

<sup>4</sup> A.Ostonokulov Davlat sektoridagi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi uslubiyotini takomillashtirish" Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali 2021 yil I-son.

uchun o'tkazish tartibini belgilash zarurligi, moliya organlari va g'aznachilik bo'linmalarida davlat sektoridagi muassasalarning byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisoblangan daromadlariga oid yagona hisobvaraqlardan foydalanish orqali ularning hisobini yuritishni joriy etish lozimligini ta'kidlaydi.<sup>5</sup>

Xorijlik iqtisodchi olimlardan Richard Allen va Dimitar Radevlar jahon tajribasi asosida byudjetning tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining har bir sohasini alohida sohalariga ko'proq e'tibor berib o'rganilishi lozimligi, jarayonni takomillashtirish ko'p jihatdan davlat byudjetining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi deya ta'rif beradi.<sup>6</sup>

Griffin byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning katta hajmini fuqorolik jamiyati tomonidan shakllantirilishi, mablag'larni sarflashda va monitoring qilishda yetarli darajada shaffoflik va oshkorolikni yo'lga qo'yishni, pul bir xil yuqori darajadagi jamoatchilik nazorati ostida bo'lishi, bir xil qat'iy qoidalarga rioya qilinishi, bir xil standartlarga muvofiq tekshirilishi, barcha fuqorolik jamiyati sub'ektlari uchun audit hisobotlari va operatsiyalar ommaga e'lon qilinishi lozim deya fikr bildiradi.<sup>7</sup>

Rossiyalik iqtisodchi olim Tatyana Veinbender byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning yo'lga qo'yilishi muhim moliyaviy xavfsizlik funksiyasini bajarishi, shu bilan birgalikda, tashkilot hisobida bo'lgan budjetdan tashqari mablag'laridan moliyaviy-ijtimoiy muammolarni hal qilish mumkinligini aytib o'tgan.<sup>8</sup>

Shuningdek, iqtisodchi olim Tadtaeva Valida bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'limni moliyalashtirish mehanizmlarini shakllantirish va nazariy-uslubiy asolarini ishlab chiqish lozimligini, ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularga tasniflash xarakteristikalarini berish, ushbu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablarni aniqlash lozim deydi.<sup>9</sup>

Ushbu izlanishlar natijasida xalq ta'lim tizimi muassasalarini moliyalashtirishda nafaqat, byudjet mablag'lari balki, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlar va ularning sarflanishini yagona tizimda hisobga olib borishni, ularga oid axborotlarni shakllantirishda yetarli darajada shaffoflik va oshkorolikni yo'lga qo'yish lozim. Byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xalqaro standartlar talablari asosida byudjet hisobini tashkil etish va yuritish tartibini takomillashtirilishi

<sup>5</sup> Ostonokulov A.A. Improving the formation and accounting of out-of-budget funds in budget organizations //Бухгалтерский учет, анализ и аудит: современное состояние и перспективы развития: материалы. – 2020. – С. 93.

<sup>6</sup> Richard Allen and Dimitar Radev "Managing and Controlling Extrabudgetary Funds" published in OECD Journal on Budgeting, Volume 6 Issue 4, 2006; [www.oecd.org/gov/budget/journal](http://www.oecd.org/gov/budget/journal).

<sup>7</sup> Griffin, C. et al. Lives in the Balance: Improving Accountability for Public Spending in Developing Countries (esp. pp. 34-37). Washington, D.C.: Brookings Institution Press. 2010.

<sup>8</sup> Tatiana Veinbender "Reforming Extra-Budgetary Funds in the Russian Federation" Reforma de los fondos extrapresupuestarios en la Federación de Rusia Recibido: 05/07/2017 Aprobado: 28/06/2017

<sup>9</sup>Тадтаева, Валида Валерьевна "Совершенствование механизма финансирования образования" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.10, кандидат экономических наук

natijasida byudjet tashkilotlarida hisobni tashkil etishning qonunchilik asoslari yetarli darajada shakllantirilgan, lekin shunga qaramay, byudjet tashkilotlari hisobi amaliyotida qator muammolar borligi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida mazkur mavzuda tadqiqot olib borish zarurligidan dalolat beradi.

### TADQIQOT METODLARI

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning hisobini tashkil etishning xususiyatlarini o'ziga hos jihatlari, normativ huquqiy hujjatlar talablari va byudjet hisobi standartlari talablarini hisobga olgan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv, statistik, iqtisodiy tahlil va boshqa bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida davlat byudjetidan moliyalashtirish bilan bir vaqtda Byudjet kodeksiga ko'ra, byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi, byudjet tashkilotlarining undiriladigan to'lovlar hisobiga shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish orqali ham moliyalashtiriladi. O'z navbatida, ushbu moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tuzilishini o'rganadigan bo'lsak, ular quyidagilarga ajratilgan:

-hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

-faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

-byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;

belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;

-homiylkdan olingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

-umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda va boshqa ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning saqlab turilganligi uchun;

-o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun.<sup>10</sup>

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida mablag'larni tasarruf etishi va ulardan foydalanishlarini tartibga soluvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, 243-son bilan ro'yhatdan o'tgan "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning

<sup>10</sup> Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: "VNESHEWESTPROM" nashriyoti, 2021, 208 b.

byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida'gi<sup>11</sup> va 343-son bilan ro'yhatdan o'tgan "Xalq ta'limi Vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va ushbu mablag'lardan foydalanish tartibi belgilangan.<sup>12</sup>

Shuningdek, "Barkamol avlod" bolalar markazlarida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom hamda "Ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi" nizom asosida xalq ta'lim tizimi tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar shakllanadi va sarflar amalga oshiriladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida bolalarning o'qishi uchun ota-onalar tomonidan olinadigan mablag'lar birinchi navbatda, bolalar musiqa va san'at maktablarini saqlash xarajatlariga (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, ijtimoiy soliq bundan mustasno) yo'naltiriladi. Tushumlarning qolgan qismi maktab pedagog xodimlari umumiy sonining ko'pi bilan 50 foizini qamrab olgan holda o'qituvchi va kontsertmeysterlar oylik ustamalar shaklida rag'batlantirishga, shuningdek, o'quvchilari xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda 1, 2, 3, 4-o'rinlarni egallagan o'qituvchi va kontsertmeysterlarga tegishlicha mukofotlashga, shuningdek, o'quvchilarning teatr, muzey, kontsertlarga tashrifi bilan bog'liq xarajatlarini to'lashga, maktabda madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga hamda qolgan mablag'lar — mavjud kreditorlik qarzlarni qoplashga va moddiy-texnik bazani mustahkamlashga yo'naltiriladi.<sup>13</sup>

«Barkamol avlod» bolalar markazlarida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalardan undiriladigan mablag'larni quyidagilarga yo'naltirish belgilangan:

-to'garak faoliyati uchun zarur bo'lgan xom ashyo va materiallar, moddiy boyliklar (mebel, asbob-uskuna va jihozlar, kompyuter texnikasi va boshqalar) xarid qilishga;

-madaniy ommaviy tadbirlarni o'tkazish va ularda qatnashish bilan bog'liq xarajatlarga;

-o'quvchilari respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar va festivallarda 1, 2, 3-o'rinlarni egallagan to'garak rahbarlarini tegishlicha bazaviy

<sup>11</sup> "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom. (2021 yil 27 aprel. 243-son)

<sup>12</sup> "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom (2019 yil 22 aprel 343-son).

<sup>13</sup> «Ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizom (2009 yil 5 fevral, 1898-son)



hisoblash miqdorining besh, to'rt, uch barobari miqdorida moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladi.<sup>14</sup>

Bugungi kunda umumta'lim maktablari 9905 ta, maxsus maktablar 89 ta, maktab internatlari 211 ta, mehribonlik bolalar uylari 29 ta, barkamol avlod bolalar maktablari 214 ta, bolalar musiqa va san'at maktablari 316 tani tashkil etgan bo'lib, jami 10764 ta xalq ta'lim tizimi muassasalariga qarashli maktablar faoliyat yuritmoqda. Shundan, bolalar musiqa va san'at maktablariga davlat byudjeti xarajatlaridan 640,8 mlrd. so'm, barkamol avlod bolalar maktablariga 251,1 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Hozirgi kunda eng katta masalalardan biri davlat byudjeti xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirishni kengaytirish borasida qator islohotlarni amalga oshirishdir.

Byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi axborot tizimidan foydalanish imkoniyatidan kelib chiqib, xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va tasarruf etish, ularning hosil bo'lish manbalari yuzasidan daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishning uslubiyotini takomillashtirish lozim. Tadqiqotlarni kuzatish jarayonida xalq ta'lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish bo'yicha ko'rsatkichlar pastligini ko'ramiz. Buni quyidagi 1-jadval misolida guvohi bo'lamiz.

### 1-jadval

#### Xalq ta'lim tizimi muassasalarida moliyalashtirish manbalari (ming so'm)<sup>15</sup>


| № | Muassasalar nomi               | Moliyalashtirish              |          |          |          |          |                                          |          |          |          |          |
|---|--------------------------------|-------------------------------|----------|----------|----------|----------|------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|
|   |                                | Byudjet mablag'lari hisobidan |          |          |          |          | Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan |          |          |          |          |
|   |                                | 2017 yil                      | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2017 yil                                 | 2018 yil | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil |
| 1 | Umumiy o'rta ta'lim muassasasi | 2833896                       | 3645219  | 4908422  | 5033862  | 6118530  | 168778                                   | 165489   | 276136   | 141473   | 42522    |
| 2 | Maktab internat                | 2629272                       | 4684242  | 6550922  | 7173693  | 7397006  | 9198                                     | 75132    | 13045    | 291      | 48666    |
| 3 | Shayhontoxur tumani XTB        | 1014053                       | 1548558  | 1801766  | 1230799  | 2174565  | 929                                      | 9517     | 29436    | 1937     | 12136    |
| 4 | Barkamol avlod                 | 359031                        | 387495   | 460449   | 493846   | 651115   | 3988                                     | 2349     | 17803    | 672      | 63671    |

<sup>14</sup> «Barkamol avlod» bolalar markazlarida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizom (2011 yil 23 sentyabr, 2267-son)

<sup>15</sup> Toshkent shaxri Shayhontohur tumani XTB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur moliyalashtirish manbalarini vujudga kelishini bevosita ularga oid daromadlar ko'rsatkichlarini alohida tarzda tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida daromadlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, budgetdan moliyalashtirish bo'yicha jami daromadlarning ulushi o'sib borganligini ko'rishimiz mumkin. Umumiy o'rta ta'lim muassasasida rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ulushi doimiy tusga ega bo'lib, ular bo'yicha ko'rsatkichlarning tebranishi kuzatilgan. Xususan, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ulushi boshlang'ich uch yil davomida o'sganligini, so'nggi ikki yil davomida keskin pasayganligini ko'ramiz. Maktab internatida rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini 2017 yilga nisbatan 2018 yil davomida 8 barobarga ortganligini, 2019 hamda 2020 yillarda butkul tushib ketganligini ko'ramiz. 2021 yilda rivojlantirish jamg'armasi mablag'larida o'sish kuzatilgan. Xalq ta'lim bo'limi va barkomol avlod bolalar markazida ham 2017 va 2018 yillarda rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha ko'rsatkichlar pastligini, 2019 yilda o'sish kuzatilganini, 2020 yilda pandemiya sababli barcha xalq ta'lim tizimi muassasalarida rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini ko'rsatkichlarini pastligini, 2021 yilda byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha o'sish kuzatilganligini guvohi bo'lmoqdamiz.


Tadqiqot ob'yekti hisoblangan Shayhontohur tumani xalq ta'lim bo'limida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlari o'zgarishini 1-rasmida ko'rib o'tamiz.



**1-rasm. Byudjet tashkilotlari rivojlantirish jamg'armasi daromadlarining ulushi (foizda)<sup>16</sup>**

<sup>16</sup> Toshkent shaxri Shayhontohur tumani XTB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi 5 yil davomida byudjetdan moliyalashtirish ko'rsatkichlari ortib borganligini, byudjetdan tashqari mablag'larning ko'rsatkichlari tushib borayotganligini ko'ramiz. Bu esa, o'z navbatida, xalq ta'lim tizimi muassasalarida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotganligini ko'rsatadi. Byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish orqali byudjet tashkilotlari xodimlarini ko'proq rag'batlantirish va bu orqali byudjetdan tashqari daromadlar qismini ko'paytirish bo'yicha xodimlar o'rtasida qiziqishlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida byudjetdan tashqari mablag'larning ko'payishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini guruh xarajatlari kesimida sarflanishini 2-rasmda ko'ramiz.



## 2-rasm. Rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining guruh xarajatlari bo'yicha sarflanishi<sup>17</sup>

Xalq ta'lim tizimi muassasalari ma'lumotlaridan ko'rinadiki, umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2017-yilda jamg'arma mablag'larining katta qismi ya'ni 45652 ming so'm mablag' IV guruh xarajatlariga to'g'ri kelgan, bu jami mablag'ning 80 foizidan ko'proq ulushini tashkil etadi. Xodimlarni moddiy rag'batlantirishga 12580 ming so'm mablag' ajratilgan. I guruh xarajatlari jami mablag'ning 20 foiz miqdorini tashkil etgan.. Bundan ko'rinib turibdiki, 2017 yil davomida xarajatlarning sarflanishi 414-sonli qaror asosida 75/25 nisbatda to'langan. 2020-yilda pandemiya sababli rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanilmagan. 2021yilga kelib I guruh xarajatlarida 20835 ming so'm sarflangan, bunda I guruh xarajatlarining jami mablag'lardagi ulushi 51 foizga yetgan bo'lsa, IV guruh xarajatlari uchun 11056 ming so'm sarflangan va bu jami mablag'larning 40foizini tashkil etadi. 2021yilda

<sup>17</sup> Toshkent shaxri Shayhontohur tumani XTb ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

hodimlarni ijtimoiy himoya va moddiy rag'batlantirish uchun belgilangan nisbat yuqori, ya'ni 2017yilga nisbatan I guruh xarajatlari ko'proq sarf etilgan. Bundan ma'lumki, mablag'larni sarflanishi 2021 yilda "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi 343-sonli Nizom asosida to'langanligini ko'ramiz.

Maktab internati va xalq ta'lim bo'limida 5 yillik ma'lumotlar asosida faqatgina IV guruh xarajatlari sarflanishi kuzatilgan. Barkamol avlod bolalar markazida 2017 va 2018 yillarda I va II guruh xarajatlari kuzatilmagan, 100 foiz mablag'lar IVguruh xarajatlari uchun foydalanilgan. 2019 yilda I guruh xarajatlari 5491 ming so'm ya'ni, jami mablag'ning 18,6 foizini, 2020 yilda 446 ming so'm ya'ni jami mablag'ning 6,8 foizini, 2021 yilda 27717 ming so'm sarflangan, bu jami mablag'ning 79,3 foizini tashkil etgan. "Barkamol avlod bolalar markazlarida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq esa xodimlarni moddiy rag'batlantirish 40 foizgacha, deb ko'rsatilgan. Bundan, 2021 yilda nizom talablarida ko'rsatilgan chegaradan ortiq mablag' hodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflanganligini guvohi bo'lamiz.

Hozirgi kunda xalq ta'lim tizimi muassasalarida mahsulot ishlab chiqarish va pullik xizmatlarni yo'lga qo'yish uchun yetarli imkoniyati bo'lgan xalq ta'lim tashkilotlari ham mavjud. Xalq ta'lim tashkilotlarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, to'liq inventarizatsiya o'tkazish hamda moddiy texnik bazasi yetarli bo'lgan tashkilotlarning daromadlari hisobiga shakllangan mablag'larning ko'proq qismini hodimlarni moddiy rag'batlantirishga sarflash lozim.

Budjet tashkilotlarida budjetdan tashqari daromadlari va mablag'larning sarflanishi buxgalteriyada hisobga olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

## 2-jadval

### Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromadlarining hisobga olinishi<sup>18</sup>

| №                                                                                                           | Muomala mazmuni                                                                                                                         | Buxgalteriya o'tkazmalari |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|-----|
|                                                                                                             |                                                                                                                                         | D-t                       | K-t |
| <b>Muassasalarning rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha daromadlari</b>                          |                                                                                                                                         |                           |     |
| 1.                                                                                                          | Vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulklarini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan tushadigan tushumlar | 159                       | 262 |
| 2.                                                                                                          | Maxsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromad                                                                             | 200                       | 262 |
| 3.                                                                                                          | Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga berilgan homiylik (beg'araz) yordam hisobidan tushumlar                  | 112                       | 262 |
| 4.                                                                                                          | Smeta ijrosi bo'yicha tejalgan pul mablag'lari                                                                                          | 112                       | 232 |
| <b>Muassasalarining undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirilgan mablag'lari bo'yicha daromadlari</b> |                                                                                                                                         |                           |     |
| 1.                                                                                                          | BABMning ota-onalar tomonidan to'lanadigan oylik badal pullari                                                                          | 156                       | 242 |

Jadvaldan ko'rish mumkinki, xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalari farq qilganligi bois alohida buxgalteriya schyotlarida hisobga olinmoqda.

### 3-jadval

#### Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha xarajatlarining hisobga olinishi<sup>19</sup>

| Xarajat guruhi                                                                                                      | Muomala mazmuni                                                                                              | Buxgalteriya o'tkazmalari |                  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|------------------|
|                                                                                                                     |                                                                                                              | D-t                       | K-t              |
| <b>Muassasalarning rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari bo'yicha xarajatlari</b>                                  |                                                                                                              |                           |                  |
| I                                                                                                                   | Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisoblandi                      | 261                       | 171, 173         |
| II                                                                                                                  | Yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha ish haqi hisoblandi                                                       | 261                       | 161              |
| IV                                                                                                                  | Boshqa to'lovlar<br>Muassasalarning rivojlantirish jamg'armasi mablag'liari bo'yicha hisoblangan xarajatlari | 261<br>261                | 150-159<br>02-06 |
| <b>Byudjet muassasalarining undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirilgan mablag'lari bo'yicha xarajatlari</b> |                                                                                                              |                           |                  |
| I                                                                                                                   | Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisoblandi                                                       | 241                       | 171, 173         |
| II                                                                                                                  | Yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha ish haqi hisoblandi                                                       | 241                       | 161              |
| IV                                                                                                                  | Asosiy vositalarning eskirishi va TMZlarning sarflanishi                                                     | 241                       | 02-06            |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning tushgan daromadlari, mablag'larning sarflanishi bir-biridan farq qilsada, debitorlik, kreditorlik qarzlari, aktivlarning sof qiymatining kamayishi bir xil umumiy schyotlarda yuritilmoqda. Tushgan mablag'larning rivojlantirish jamg'armasi mablag'lariga, to'lovlarning maxsus turiga tegishlisi mavhumligicha qolmoqda. Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, maxsus schyotlardagi mablag'larning aniq raqamlarini bilishimiz uchun yangi analitik schyotlarni ochish lozim yani debitorlik, kreditorlik qarzdorliklar bo'yicha alohida ishchi hisobvaraqlarda yuritishga zaruriyat mavjud.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar natijasida xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari va ularning hisobini yuritish byudjet tizimi uchun muhim hisoblanadi. Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi uslubiyatini takomillahtirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi 2169-son yo'riqnomaga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

Birinchiidan, kuzatish natijasida xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larning tushumi bir xil umumiy schyotlarda yuritiladi, mablag'larning hisobini olishimiz uchun yangi analitik schyotlarni ochish lozim.

| Ko'rsatkichlar nomi                                                                                        | Byudjet mablag'lari | Rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari | To'lovlarning maxsus turiga doir hisob-kitoblar |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|----------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar                                                  | 150/1               | 150/2                                  | 150/3                                           |
| Turli qarzdorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar                                                       | 159/1               | 159/2                                  | 159/3                                           |
| Byudjetga to'lovlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar                                                  | 160/1               | 160/2                                  | 160/3                                           |
| Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar | 161/1               | 161/2                                  | 161/3                                           |
| Yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallar bo'yicha hisob-kitoblar           | 162/1               | 162/2                                  | 162/3                                           |
| Ijtimoiy nafaqa uchun ishchilar bilan hisob-kitoblar                                                       | 171/1               | 171/2                                  | 171/3                                           |
| Ish haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar                                                            | 173/1               | 173/2                                  | 173/3                                           |

Ikkinchiidan, xalq ta'lim tizimi muassasalarida pullik xizmatlardan, otalarning oylik to'lov badal pullarini o'z vaqtida to'lashi uchun nizom talablariga muvofiq aniq muddat ko'rsatilgan, lekin muddati o'tgan to'lovlar uchun buxgalteriya o'tkazmalarida hisobga olinishi qay tartibda ekanligi, ularning nazorati kim tomonidan amalga oshirilishi, aniq bir tegishli me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilmagan, ya'ni xalq ta'lim tizimiga tegishli nizomlar va buxgalteriyada hisobga olinishi bilan bog'liq bo'lgan yo'riqnomalar bir-biriga nomuvofiq;

Uchinchiidan, xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari sarflanishi bo'yicha nizom talablariga muvofiq chegara belgilangan, ya'ni shu mablag'lardan ish haqiga, yagona ijtimoiy to'lovlarga va boshqa to'lovlarga sarflanishi aynan nizom talablariga amal qilinayotganligini nazorati tegishli moliya organlari tomonidan yuritilishi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish orqali davlat byudjeti xarajatlarini kamaytirishga, ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga va muassasalarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishning qo'shimcha manbai hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/3107036>
2. "Barkamol avlod bolalar markazlarida bolalar o'qiganligi uchun ota-onalar to'lovini undirish va undan foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom (2011 yil 23 sentyabr, 2267-son)
3. Ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qishi uchun haq to'lash va undan foydalanish tartibi to'g'risida»gi nizom (2009 yil 5 fevral, 1898-son)
4. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom (2019 yil 22 aprel, 343-son)
5. "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va foydalanish tartibi to'g'risida"gi nizom. (2021 yil 27 aprel, 243-son)
6. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma.(2017 yil 3 aprel, 2169-1)
7. Ostonokulov A.A. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. ISBN 978-9943-7453-2-2 T.: "VNESHEWESTPROM" nashriyoti, 2021,208 b.
8. A.A.Ostonokulov "Davlat sektoridagi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi uslubiyotini takomillashtirish" Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. (2021 yil I-son.)
9. Ostonokulov A.A. Improving the formation and accounting of out-of-budget funds in budget organizations //Бухгалтерский учет, анализ и аудит: современное состояние и перспективы развития: материалы. – 2020. – С. 93.
10. S.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari" Iqtisod va moliya.(2015 yil 10-son.)
11. Griffin, C. et al. Lives in the Balance:" Improving Accountability for Public Spending in Developing Countries" (esp. pp. 34-37). Washington, D.C.: Brookings Institution Press. (2010.)
12. Richard Allen and Dimitar Radev "Managing and Controlling Extrabudgetary Funds" published in OECD Journal on Budgeting, Volume 6 Issue 4, 2006; [www.oecd.org/gov/budget/journal](http://www.oecd.org/gov/budget/journal).
13. Tatiana Veinbender "Reforming Extra-Budgetary Funds in the Russian Federation" Reforma de los fondos extrapresupuestarios en la Federación de Rusia Recibido: 05/07/2017 Aprobado: 28/06/2017.
- 14.Тадтаева Валида Валерьевна "Совершенствование механизма финансирования образования" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.10, кандидат экономических наук.

УДК: 658.11

## АУДИТОРСКИЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА СЕРТИФИКАЦИИ

**Ганиев Зафар Усанович**

PhD, «Бухгалтерский учёт» ТМИ

[ganiyevzu@mail.ru](mailto:ganiyevzu@mail.ru)

**Киличева Фарида Бешимовна**

доцент кафедры «Бухгалтерский учёт» ТМИ

[kilichevf@bk.ru](mailto:kilichevf@bk.ru)

**Имамова Насиба Музафаровна**

PhD, «Бухгалтерский учёт» ТМИ

[imomova2014@inbox.ru](mailto:imomova2014@inbox.ru)

**Ганиев З.У., Киличева Ф.Б., Имамова Н.М.**

## АУДИТОРСКИЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА И ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОЦЕССА СЕРТИФИКАЦИИ

В статье говорится, что аудиторская деятельность осуществляется аудиторской организацией, что бухгалтерская отчетность хозяйствующих субъектов в действительности соответствует информации в документах бухгалтерского учета, сводных отчетах, сводных сведениях и учетных записях. Даются выводы, научные предложения и рекомендации по получению аудиторских доказательств по результатам внешних аудиторских проверок, оценке качества собираемой аудиторской организацией информации и финансового состояния аудируемого лица, а также их документальное оформление в соответствии с международными стандартами.

**Ключевые слова:** акционерное общество, аудиторская организация, аудиторская деятельность, аудиторские доказательства, аналитическая деятельность, выбор аудитора.



**Ganiyev. Z.U., Kilicheva F.B., Imamova N.M.**

## AUDITOR EVIDENCE AND IMPORTANT ASPECTS OF THE CERTIFICATION PROCESS

The article confirms that the audit activity of the auditing organization corresponds to the actual financial statements of business entities in the accounting documents, summary statements, aggregated information and accounting records, as well as obtaining audit evidence on the basis of external audits, the quality of the audited entity conclusions, scientific proposals and recommendations on the assessment of the situation, as well as their documentation on the basis of international standards.

**Key words:** joint-stock company, organizations of audit, audit activity, auditor evidence, analytical activities, selection of audit.

### ВВЕДЕНИЕ

В настоящее время в нашей республике уделяется большое внимание совершенствованию аудиторской деятельности. В частности, очередным важным шагом в совершенствовании аудиторской деятельности в нашей стране стало принятие Постановления Президента Республики Узбекистан №ПП-3946 от 19 сентября 2018 года «О мерах по дальнейшему развитию аудиторской деятельности в Республике Узбекистан». Создание благоприятного инвестиционного климата в нашей стране во многом зависит от качественной организации аудиторских проверок. При обеспечении качества аудиторских проверок и достоверности аудиторских заключений большое внимание уделяется достаточности и адекватности собранных доказательств, собранных в ходе аудиторских проверок. Поэтому на практике аудиторы делают большой акцент на процессе сбора доказательств. Требуется от аудиторов своевременного полного и точного документирования собранных доказательств. В практике аудиторской деятельности вопросы, касающиеся структуры, количества и формы рабочих документов, всегда были актуальны, так как внешняя проверка качества оказываемых услуг субъектами аудиторской деятельности направлена на полноту и достаточность раскрытия информации в указанных документах. При этом применение международных стандартов аудита с точки зрения нормативно-правового регулирования и внедрения облегчило процесс документирования и сделало его более прозрачным во внутреннем и внешнем контроле качества.

Международные стандарты аудита четко и подробно раскрывают особенности сбора данных и отражения аудиторской документации в различных ситуациях, соотнесения ее с пунктами других стандартов, что является их очевидным преимуществом.

### АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В Республике Узбекистан в условиях модернизации экономики актуальным является вопрос проведения внешним аудитом аудиторской проверки финансовой отчетности акционерных обществ. Поэтому возникает необходимость в формализации результатов работы службы внешнего аудита в нашей стране и ее составлении в соответствии с международными стандартами.

Приведение аудиторских проверок в соответствие с международными стандартами, повышение качества аудиторских отчетов и заключений напрямую зависит от аудиторских доказательств. Адекватность аудиторских доказательств и соблюдение требований обеспечивает повышение качества контроля.

В современной литературе существуют различные подходы к понятию «аудиторские доказательства».

Первый подход - С.М.Бычкова считает, что аудиторские доказательства рассматриваются как «факты» и «процессы». Доказательства означают, что они могут служить для подтверждения или опровержения существования другого факта, или процесс получения информации о конкретном факте, позволяющем сформировать аудиторское заключение о достоверности финансовой отчетности [1].

Второй подход - аудиторские доказательства представляют собой источники информации. По мнению В.Б. Ивашкевича «доказательствами в аудите служат документированные источники данных, полученных в результате аудиторской проверки достоверности бухгалтерской отчетности организации» [2].

Третий подход - Дж. Робертсон дает следующее определение: «аудиторские доказательства представляют собой информацию, которая определяет действия аудитора, влияющая на мнение аудиторов и определяющая их решения» [3].

В международном стандарте аудита 500 «Аудиторские доказательства» аудиторские доказательства определяются следующим образом: «аудиторские доказательства - информация, используемая аудитором при формировании выводов, на которых основывается аудиторское мнение. Аудиторские доказательства включают как информацию, содержащуюся в данных бухгалтерского учета, на которых основывается финансовая отчетность, так и прочую информацию» [4].

По мнению ученого-экономиста И.Кузиева, «аудиторскими доказательствами являются данные бухгалтерского учета, остатки аналитических счетов, первичные документы и сводные регистры, сведения, собранные аудиторской организацией в ходе аудиторской проверки и обосновывающие аудиторское заключение» [5].

С.М.Бычковой и Е.Ю.Итыгиловой было высказано следующее мнение: «Важно, чтобы аудиторские доказательства были достаточными и соответствующими. Потому что степень накопления этих показателей также влияет на план аудита и количество аудиторских проверок. Потому что достаточность аудиторских доказательств напрямую зависит от того, каким должно быть аудиторское заключение» [6].

Таким образом, на наш взгляд, аудиторскими фактами являются сведения об организации бухгалтерского учета, первичные учетные и обобщающие сведения, являющиеся основанием для выражения аудиторского заключения, сведения и остатки по счетам, являющиеся основанием для составления бухгалтерской отчетности, сведения бизнес - плана, сведения из внешних информационных источников и сведения, не относящиеся к бухгалтерскому учету.

## АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Об аудиторских доказательствах подробно говорится в международных стандартах. В качестве объекта стандартизации в международных стандартах аудита - AHS (International standards of Auditing – ISAS) выделен специальный раздел V- «500-599 Аудиторские доказательства». Этот раздел включает в себя 9 стандартов.

В Республике Узбекистан из принятых до настоящего времени национальных стандартов аудиторской деятельности разработано 6 стандартов.

При получении аудиторских доказательств используются первичные документы и бухгалтерские записи, являющиеся основой финансовой отчетности, а также подтверждающая информация, полученная из других источников. Аудиторские доказательства должны быть достаточными и адекватными.

Мы считаем, что аудиторская организация в процессе сбора аудиторских доказательств должна уделять основное внимание следующим факторам:

- оценке процесса бухгалтерского учета, финансовой отчетности акционерного общества и характера системы внутреннего аудита и внутреннего контроля, создаваемой в обществе, а также независимость внутреннего аудита и оценка риска контроля;

- объему аудиторской деятельности и аудиторских работ, выполненных аудиторской организацией;

- источнику информации аудиторских доказательств, собранных аудиторами, и доказательство их достоверности.

В соответствии с правилом, изложенным в пункте 4 Национального стандарта аудиторской деятельности под названием «Аудиторские доказательства»: для получения аудиторских доказательств используются первичные документы и бухгалтерские записи, являющиеся основой для финансовой отчетности, а также другая подтверждающая информация, полученная из других источников.

Аудиторские действия представляют собой действия, которые аудиторская организация выполняет с целью получения аудиторских доказательств для определения наличия или отсутствия ошибок-дефектов в финансовой отчетности.

Мы считаем, что при осуществлении аудиторской деятельности в акционерных обществах следует уделить особое внимание следующим вопросам:

- контроль наличия обязательств и активов на дату окончания отчетного периода в проверяемой финансовой отчетности;

Dánekersiz qospa gáplerdi óz aldına qospa gáptiń bir túri retinde úyreniw XX ásirde 50-60-jıllardan baslap túrkiy tillerin de V.N.Xangilidiń, Ǵ.A.Abdurahmanovtıń miynetlerinen orın aldı. V.N.Xangildinniń anıqlawı boyınsha dánekersiz qospa gáptiń baslı belgisi retinde intonaciya, pauza hám qospa gáp quramındaǵı geybir forma ortalıqları kórsetiledi.

Ilimpaz A.Álniyazov házirgi qaraqalpaq tilinde komponentler arasındǵı túp mánilerdiń xarakteri boyınsha dizbekli qospa gáplerdi eki toparǵa ajratıwdı usınadı: 1) biriktiriw mánili gápler 2) qarama-qarsı mánili gápler dep ajratadı.[1] Qospa gáptiń hárqaysı túriń dúzilisi, túrli funkciyaları hám kategoriyaları boyınsha talas-tartıslı pikirler júdá kóp. Olardıń hárbirin óz aldına izertlew obyektine alıw hám analiz jasaw házirgi til biliminde sintaksis tarawınıń aktual máselelerinen bolıp esaplanadı.

Lingvistikalıq ádebiyatlarda dizbekli qospa gáplerdiń komponentleri arasında teńlik múnásebetleri biriktiriw, qarama-qarsılıq, izbe-izlik mánileri tiykarında anlatıladı dep kórsetiledi. Biraq, sonıń menen birge, dizbekli qospa gápler arqalı anlatılatuǵın mániler kólemi anaǵurlum keń ekenligi názerde tutılıp, dizbekli qospa gáplerde baǵınıńqılı qospa gáplerde bildiriletuǵın máni múnásebetleriniń derlik barlıǵı anlatılıwı múmkinligin atap ótken.

Jazıwshı Sh.Seytov dóretiwshiligine ádebiy jaqtan da, tillik jaqtan da talqı jasaw izertlewshilerdiń dıqqatın ózine tartıp keledi. Óytkeni, dóretiwshiniń shıǵarmaları hár tárepleme talqıǵa alıwǵa ılayıq. Onıń prozalıq shıǵarmalarındaǵı qospa gápler hám olardıń túrli ózgesheliklerin analizledik. Máselen: Bizden mına jesirińdi **al**, yamasa bir

aqıl **tawıp ber**. Shańgıtıp atırǵan bozlaq **kóp**, biraq, hámmesi suwdan **jiraq**. Qız shıntlap jılaǵanında ózin birden tıya **almas pa edi**, *álle qáyter edi*, biraq, bul saparı ózin birden **tıya aldı**.

Keltirilgen mısallarda dizbekli qospa gápler berilgen bolıp, birinshi gápte awıspalı dizbekli qospa gáp, al keyingi mısallarda, qarsılaslıq mánidegi dizbekli qospa gápler qollanılǵan. Dáslepki gápte hárbir gáptiń ózine tán baslawıshı hám bayanlawıshı bar, sonlıqtan da qospa gáp dúzilip tur hám eki gáptiń ortasın “yamasa” dánekeri baylanıstırıp tur. Keyingi mısallarda da óz aldına bayanlawıshlarına iye hám qarsılaslıq mazmun ańlatılǵan.

Avtordıń shıǵarmalarına tereńnen názer taslaytuǵın bolsaq, álbette, onıń shıǵarmalarınıń tili joqarı dárejede ekenligin, sheberligi ayrıqsha ekenligin ańlaymız. Atap aytqanda, onıń shıǵarmalarında dizbekli qospa gápler júdá sheberlik penen qollanılıp, qaharmannıń obrazın ashıp beriwde ayrıqsha áhmiyetke iye.

Qunnazardıń taǵı bir ádeti – biytanı adamnıń kózinshe sıylaǵandı **táwir kórer edidaǵı**, onıń bul minezine Baltabay basqadan **qanıq**. («Xalqabad»romanı)

Qus joldan at shaptırım oń tamanlawda hám oǵada **bálentte edidaǵı**, bulkáradan onıń ne qus ekenin Mádiyár **serley almadı**. («Xalqabad»romanı)

**-daǵı** dánekerli dizbekli qospa gáplerdiń birinshi komponentiniń bayanlawıshı quramında keledi hám Sh.Seytovtıń shıǵarmalarında da jiyi qollanılǵan. Keltirilgen gáplerde sebep-nátijeli dizbekli qospa gápler qollanılıp, daǵı dánekeri qospa gápti dúziwde ayrıqsha áhmiyetke iye bolıp kelgen.

Tún jarpında kim **ańhydı**, awlaǵında júregin **bir jaraym-shı!** («Xalqabad»,4-b) Bul ózi ata teginde baylıq **bolmaǵan**, jigirmalaǵan jıl arıda nanı qalınıǵan taza **bay edi**. («Xalqabad»,6-b) Onıń daǵdaǵası Tórtkúlden bılay aylanıp otır, rayondaǵılar da biledi, bolǵanı sol - bir bala, bir qız tarta bereseń, jora – dep edi, ol da bir dimǵa túsınbeytuǵın **ójet eken**. («Xalqabad»,262-b)

Keltirilgen dáslepki mısalda dánekersiz qospa gáp berilip, intonaciya arqalı qospa gáp dúzilgen. Keyingi mısallarda da dánekersiz qospa gápler berilip, biri sebep-nátijje, biri qarsılaslıq mazmundı ańlatıp tur.

Ulıwmalastırıp aytqanda, jazıwshı Sh.Seytovtıń shıǵarmalarında qospa gáplerdiń hárbir túrine sáykes keliwshı mısallardı ushıratamız. Bul bolsa óz gezeginde, avtordıń sheberliginen, tildiń sózlik qorınan hár tárepleme sheber paydalana alǵanlıǵınan derek beredi. Dizbekli, baǵınıńqılı hám dánekersiz qospa gáplerdiń hárbir túri jazıwshı shıǵarmalarınıń mazmunın ashıp beriwde, dúzilgen gáplerdiń oqıwshıǵa túsınikli bolıwında ayrıqsha áhmiyetke iye. Izertlewlerimiz dawamında dóretiwshiniń shıǵarmalarındaǵı qollanılǵan dánekersiz, dizbekli, baǵınıńqılı qospa gáplerdiń hárbirine óz aldına analiz jasaw hám úyrenip shıǵıw ayrıqsha áhmiyetke iye máselelerden bolıp qalmaqta.

### PAYDALANILGAN ÁDEBIYATLAR:

1. Альниязов А. Ҳозирги қорақалпоқ тилидаги боғланган кўшма гапларнинг функционал-семантик таҳлили. Фил.фан.докт.автореф.Нукус, 2020.
2. Dáwletov M., Seydullaeva D., Házirgi qaraqalpaq tilinde qospa gápler. Nókis., «Qaraqalpaqstan», 2010.
3. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент., «Ўқитувчи», 1987.
4. Нажимов А. Ҳэзирги қарақалпақ тили Синтаксис. Нөкис, «Қарақалпақстан» 1990.
5. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Дарслик.-Тошкент, Университет, 2006.
6. Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик курилмалар деривацияси. Монография.-Саиарканд, СамДЧТИ нашри,2008



## MACROECONOMIC INDICATORS OF THE EFFICIENCY OF TRANSPORT LOGISTICS SERVICES AND WAYS OF THEIR DETERMINATION

**Orzukulova Zumrad**

PhD student at SamSU

[zumrad.orzuqulova@mail.ru](mailto:zumrad.orzuqulova@mail.ru)

### ABSTRACT

This article provides a macro-level analysis of the efficiency of enterprises providing transport logistics services. The share of enterprises providing transportation and storage services in the national economy is analyzed. Based on the results of the analysis, micro-level indicators representing the efficiency of enterprises providing transportation and storage services are proposed. Based on the volume of transported cargo and the grouping of cargo turnover by types of transport, road transport with a large share was analyzed. The share of small business entities within the enterprises providing transportation and storage services, the estimated value created by them is indicated. The share of this sector in the GDP was also paid attention to, and an indicator representing the efficiency was proposed in this regard.


It is suggested that the macro-level indicators representing the mentioned efficiency be grouped separately in relation to domestic and international freight transportation, which ensures that the efficiency indicator is used at two different levels.

Indicators related to the dynamics of the number of employees and the enterprises and organizations engaged in transportation and storage providing transport logistics services are also presented, which allow forecasting and determining the future perspective in this area.

**Keywords:** freight, transportation and storage, transport logistic firms, transport logistic services, efficiency indicators.

**INTRODUCTION.** Business entities constantly strive for higher profits as the final result of their activities. One of the factors that influence the increase in profit is the increase in efficiency. Today, as one of the areas with a high growth trend in our national economy, the importance of analyzing transport logistics services companies, logistics centers and dispatching activities is increasing.

**METHODS.** The number of enterprises and organizations operating in the field of transportation and storage services is increasing as a result of the opportunities created by the reforms being carried out in our country. This, in turn, is reflected in the national economy. In January-September 2022, 5.2% of the country's GDP belongs to the transportation and storage network. Simplification of the process of establishing an enterprise, reduction of customs and formalization work opened a wide way for the development of this sector. The line diagram presented below represents the dynamics of changes in the number of enterprises and organizations operating in the field of transportation and storage services over the years.



**Figure № 1 Dynamics of growth of the number of enterprises and organizations operating in the field of transportation and storage services**

Since 2018, it can be seen that the number of enterprises and organizations operating in the field of transportation and storage services is only increasing. As of 2018, the number of enterprises and organizations operating in this field was 13,099, and in 2022, their number increased by 7,118 to 20,217.

| Years       | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  | 2022  |
|-------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| Number      | 13099 | 15268 | 16969 | 18846 | 20217 |
| Growth rate | x     | 116.6 | 111.1 | 111.1 | 107.3 |

**Figure № 2 The number of enterprises and organizations operating in the field of transportation and storage services**

The analysis of the number of enterprises in the last 5 years shows that the enterprises operating in this field increased by an average of 10% during this five-year period compared to the previous one. The largest increase compared to the previous year was 116.6 percent in 2019. In 2022, compared to 2021, it increased by 7.3%, which is the lowest growth rate. The overall growth trend has been maintained over the five-year period. This growth trend is also reflected in gross value added. In January-September 2022, 30,006.5 billion soums of gross added value was created in the field of transportation and storage. Compared to 2018, this value has increased by 27.8%. This is explained by the increase in the number of enterprises. Looking at the composition of added value, road transport is the leader with 58.8%. In the months of January-June of this year, almost half of the total volume of goods transported in road transport, 45.5%, was carried out by small business entities. Among these small business entities, the main place is occupied by small enterprises and micro-firms, which make up 30.6%.

| Indicators                            | 2018           | 2019           | 2020           | 2021           |
|---------------------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|
| <b>Freight transported, mln. tons</b> | <b>1 243,0</b> | <b>1 319,8</b> | <b>1 366,7</b> | <b>1 420,2</b> |
| railroad                              | 68,4           | 70,1           | 70,6           | 72,0           |
| motor *                               | 1 102,2        | 1 177,7        | 1 238,2        | 1 282,0        |
| pipeline                              | 72,4           | 72,0           | 57,9           | 66,2           |
| air, thsd. tons                       | 13,1           | 10,4           | 5,3            | 9,1            |
| <b>Freight turnover, bln. ton-km</b>  | <b>71,3</b>    | <b>72,6</b>    | <b>66,9</b>    | <b>74,8</b>    |
| railroad                              | 22,9           | 23,4           | 23,6           | 24,6           |
| motor *                               | 14,6           | 15,9           | 16,2           | 19,1           |
| pipeline                              | 33,6           | 33,2           | 26,8           | 30,8           |
| air, mln. ton-km                      | 123,5          | 119,0          | 219,0          | 303,5          |

**Figure № 3 Freight transportation and freight turnover by transport type**

The volume of cargo transported by these enterprises in 2021 was 1,420.2 million tons. 1,282 mln. Tonnage corresponds to the contribution of road transport. Cargo turnover was 74.8 billion ton-km.

**RESULTS.** It can be seen that the volume of services provided in this network is increasing. This means that the network is working effectively. In order to represent the efficiency of transport logistics services at the macro level, several indicators should be included. We suggest using the following as such indicators:

1. An indicator representing the percentage share of each type of transport in the total volume of transported cargo. In this case, it is possible to monitor the total transported load and the efficiency of each type of transport over the years.
2. The indicator representing the share of each type of transport in the volume of cargo turnover in percentage. It is possible to observe the contribution of each type of transport to the total cargo turnover and the efficiency of its activity over the years.
3. The number of enterprises engaged in transportation and storage and the length of roads in use according to each type of transport is an indicator representing the ratio in the cross-section of years. It is necessary to calculate it separately for those engaged in domestic and international transportation. Indicators for groups such as length of public roads and traffic roads.
4. An indicator representing the share of employees employed in transportation and storage in the total number of jobs.
5. The indicator representing the average share of one enterprise in the total provided transport and storage services.
6. Indicators representing the share of each enterprise and employee in the total transported cargo and cargo turnover.

**DISCUSSION.** These indicators represent the shares corresponding to the contribution of each enterprise at the macro level. The dynamics of the number of enterprises makes it possible to predict the impact of changes on these indicators. This leads to an increase in the sector's contribution to GDP.

**CONCLUSION.** Based on the results of the analysis, micro-level indicators representing the efficiency of enterprises providing transportation and storage services are proposed. Based on the volume of transported cargo and the grouping of cargo turnover by types of transport, road transport with a large share was analyzed. The share of small business entities within the enterprises providing transportation and storage services, the estimated value created by them is indicated. The share of this sector in the GDP was also paid attention to, and an indicator representing the efficiency was proposed in this regard. It is suggested that the macro-level indicators representing the mentioned efficiency be grouped separately in relation to domestic and international freight transportation, which ensures that the efficiency indicator is

used at two different levels. Indicators related to the dynamics of the number of employees and the enterprises and organizations engaged in transportation and storage providing transport logistics services are also presented, which allow forecasting and determining the future perspective in this area.

### REFERENCES:

1. Панов М. М. Оценка деятельности и система управления компанией на основе KPI. — М.: Инфра-М, 2013. — 255 с.
2. Orzukulova Z.A. “THE NEED FOR PERFORMANCE INDICATORS IN TRANSPORT LOGISTICS ENTERPRISES» European Journal of Economics and Management Sciences № 5-6 2022
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>
4. <https://secretmag.ru/enciklopediya/chto-takoe-kpi-obyasnyajem-prostymi-slovami>.
5. <https://vc.ru/transport/452353-6-vazhnyh-kpi-transportnoy-logistiki-kotorye-stoit-otslezhivat>
6. <https://www.transportdepot.ru/about-us/helpful-information/effektivnost-transportnoj-logistiki.html>

## ERKIN VOHIDOV IJODIDA INTERTEKSTUALLIK

**Xomidova Maxfuzaxon Farxodjon qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

[mahfuzaxon.xomidova@mail.ru](mailto:mahfuzaxon.xomidova@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Dunyo tilshunosligida matnni inson tafakkuri mahsuli sifatida uning yaratuvchisi, qabul qiluvchisi bilan kompleks tarzda o‘rganish psixolingvistik, sotsiolingvistik hamda pragmalingvistik tadqiqotlarning amalga oshirilishiga imkon yaratdi. Matnning yaratilishi, uning idrok qilinishi, tushunilishi kabi masalalar dolzarb muammo sifatida talqin qilinmoqda. Qayd etish joizki, bu yo‘nalishda dunyo tilshunosligi qator yutuqlarga ham erishdi. O‘zbek tilshunosligida ham dunyo tilshunosligining yangi ilmiy paradigmalari asosida badiiy matn tadqiqi doirasi kengaydi, uning mazmuniy idrok qilinishi, kitobxon tafakkurini boyitishi va nutq madaniyatini oshirish kabi jarayonlarga ta‘sirini o‘rganishga jiddiy kirishildi. Badiiy matn persepsiyasi va bu jarayonga intertekstuallik hodisasining ta‘sirini o‘rganish ham badiiy asar tahlili, matnning o‘ziga xosligi, kitobxon uchun foydali jihatlarini aniqlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningek, badiiy matndagi intertekstual birliklarni aniqlash, ularning mazmuniy persepsiyaga ta‘siri masalasini o‘rganish tilning yangi, lekin tadqiq qilinmagan jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Ushbu maqolada badiiy matndagi intertekstuallik tushunchasi, uning o‘rganilishi o‘zbek adabiyotida, xususan, Erkin Vohidov she‘riyatidagi turlari misollar yordamida tahlilga tortilgan. “O‘zbekim” qasidasidagi intertekstuaallik va uning turlari hamda badiiy matn tushunilishi haqida xulosalar chiqarilgan.

***Kalit so‘zlar:*** intertekstuallik, intertekst, badiiy matn, persepsiya, she‘riy nutq, presedent birliklar, toponimlar, antroponimlar, iqtibos.

### ABSTARCT

In world linguistics, the comprehensive study of the text as a product of human thinking with its creator and receiver made it possible to conduct psycholinguistic, sociolinguistic and pragmalinguistic studies. Issues such as the creation of the text, its perception and understanding are interpreted as urgent problems. It should be noted that world linguistics has made a number of achievements in this direction. In Uzbek linguistics, based on the new scientific paradigms of world linguistics, the scope of artistic text research has expanded, and the study of its impact on processes such as meaningful perception, enrichment of the reader’s thinking, and improvement of

speech culture has been seriously undertaken. The study of the perception of the artistic text and the impact of the phenomenon of intertextuality on this process is also of great importance in the analysis of the artistic work, the originality of the text, and the determination of its useful aspects for the reader. In addition, the identification of intertextual units in the artistic text and the study of their impact on meaningful perception allow to identify new, but unexplored aspects of the language. Its types are analyzed with the help of examples. Scientific conclusions have been made about the intertext and artistic text in the ode “Uzbegin”.

**Keywords:** intertextuality, intertext, literary text, perception, poetic speech, precedent units, toponyms, anthroponyms, quotation.

## KIRISH

Matnlarning ajralmas qismi bo‘lgan intertekstuallik badiiy matnning shakllanishi va idrok qilinishida muhim lingvistik vosita sanaladi. Bunday matn parchalari tayyor lisoniy birlik sifatida kitobxonning ongidan allaqachon joy olganligi uchun intertekstuallik qatnashgan badiiy matni tushunish ancha osonlashadi hamda muallifning badiiy niyati o‘quvchi uchun yana ham aniqlashadi. Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, bugun u lingvistika va adabiyotshunoslikning tadqiq predmetlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu atama fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritildi. Uning “Baxtin, so‘z, dialog va roman” nomli ilmiy risolasida ilk bor bu atama qo‘llangan va intertekstuallik hodisasiga ta’rif berilgan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta’kidlab, ko‘proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi. Y. Kristevaning intertekstuallikka bergan ta’rifi quyidagicha: “Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi”[3]. Garchi olimasi aytganidek, har bir matn sitatalar mozaikasidan iborat bo‘lmasa ham, har qanday matnda, albatta, intertekstual birliklarning biriga duch kelish mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keyingi yillarda esa filologiya ilmida intertekst hamda matnda intertekstuallik kategoriyasining namoyon bo‘lishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ko‘paydi. I. Arnoldning intertekstuallik poetikasi, badiiy asar tushunilishidagi o‘rni, N. Fateevaning intertekstual birliklar tipologiyasi va turlari haqidagi tadqiqotlari, Y. Bashkatova, P.Torop, T. Litvinenkoning dissertatsiyalari, M. Gasparov, I. Galperinning matn va intertekstuallik nazariyasiga oid asarlari[1,2,5] yuzaga keldi. Shuningdek, dunyo olimlari intertekstuallik hodisasining lingvistika va adabiyotshunoslikdagi o‘rni hamda uning turli xususiyatlariga bag‘ishlangan

tadqiqotlari bilan uning nazariy asoslariga ma'lum ma'noda o'z hissalarini qo'shdi. Xususan, A. Abramov, Y. Lotman, K. Sidorenko, V. Chernyavskaya, H. Burger, M. Pfister, M. Yampolskiy, A. Frank, M. Riffater kabi olimlar intertekstuallik tamoyilini turli tomondan tadqiq qilgan.

Intertekstuallikka aloqador monografik tadqiqotlar esa XX asrning so'nggi o'n yilligida paydo bo'ldi. V. Milovidov, I. Smirnov, I. Tolochin, A. Ustin kabi olimlarning ishlarini misol tariqasida keltirish mumkin[8].

O'zbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M.Yo'ldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Uning doktorlik dissertatsiyasida intertekstuallik hodisasi, uning badiiy matn tarkiblanishidagi o'rni va o'zbek badiiy matnlarida uchraydigan turlari haqida ma'lumot berilgan. D.Xudoyberganova esa badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bevosita intertekstuallik tarkibiga kiruvchi presedent birliklarga urg'u bergan. Z.Salieva o'zbek va ingliz tilidagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosi haqidagi tadqiqotida bu hodisani intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholagan. Tarjimashunos, adabiyotshunos olim M.Xolbekovning ham intertekstuallik yuzasidan bir qancha maqolalari e'lon qilingan. O'zbek olimlari ham asosan badiiy matnlardagi intertekstuallik hodisasiga e'tibor qaratgan. Chunki bu hodisaning eng to'liq va mukammal namoyon bo'l oladigan o'rni she'riy va nasriy matnlardir. Badiiy matnlar o'zida intertekst asosida boshqa matn va ma'lumotlarni ham saqlab o'quvchi uchun estetik zavq berishdan tashqari qomusiy bilim beradigan manbalardan biridir. Uning bu xususiyati, vazifasi aynan intertekstual birliklar orqali amalga oshadi. Biz ushbu kichik tadqiqotda Erkin Vohidov ijodidagi intertekstuallik va uning badiiy matn mazmuniy persepsiyasidagi o'rni haqida ma'lumot beramiz.

## NATIJALAR

Matnlarda o'zga matn parchalarining qo'llanilishi orqali kitobxonning intertekstuallik ostidagi mazmunni hamda berilgan matnni qiyosan tushunishi uchun imkoniyat yaratiladi. Intertekstual birliklar asarning vertikal kontekstini yaratadi, ya'ni ma'lum bir matn orqali oldin yaratilgan boshqa birini ham idrok qilish mumkin bo'ladi [2]. Intertekstuallikni faqat muayyan matnning parchasi hosil qilmaydi. Badiiy matnda tarixiy voqea, shaxslarning nomini keltirish ham intertekstuallik hodisasining bir turidir.

O'zbek ijodkorlarining asarlarini ham intertekstual matnlarsiz tasavvur qilish imkosiz. O'zbek adabiyotida intertekst sifatida muayyan matnning parchasidan tortib, *Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir* kabi allyuziv birliklar ham tez-tez uchraydi. Bunday birliklarni keltirish orqali matnda ular bilan bog'liq



tarixiy yoki madaniy voqealarga ishora qilinadi. Iste'dodli shoir, O'zbekiston Qahramoni E.Vohidov she'riyatining xalqona va umrboqiyiligining sabablaridan biri ham unda intertekstual birliklarning ko'pligidir. Uning birgina "O'zbekim" qasidasi o'zbek xalqi tarixini yoritib beradigan adabiy, madaniy, tarixiy matnlarga ishora qiluvchi intertekstlar bilan to'la bo'lib, asarning butun g'oyaviy mazmunini ochib berish aynan intertekstlar zimmasiga yuklatilgan. Qasidada geografik, astronomik nomlar bilan birga, turli antroponimlar keltirilgan bo'lib, ular bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalar, afsona va rivoyatlarga ishora qilinadi va bu orqali intertekstuallik ta'minlanadi. Qasidada intertekstuallikni hosil qilgan onomastik birliklarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

1. Toponim intertekstlar:

*Pomir, Tiyonshon, Afrosiyob, Hind, Afg'on.*

2. Antroponim intertekstlar:

*Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Forobiy, Muqanna, Qaysari Rum, Chingiz, Botu, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy, Nodira, Mashrab, Pushkin, Bayron.*

## MUHOKAMA

Intertekst sifatida bu onomastik nomlar she'rdagi shunchaki ishtirok etmaydi. Shoir aksariyat hollarda birgina so'z orqali butun boshli tarixiy hodisaga ishora qiladi. Masalan:

*Qaysari Rum nayzasidan*

*Bag'rida dog' uzra dog',*

*Chingiz-u Botu tig'iga*

*Ko'ksi qalqon, o'zbekim.*

Bu baytlarda *Qaysari Rum, Chingiz, Botu* tarixiy nomlari orqali tariximizda ro'y bergan muhim bosqin va urushlarga ishora qilinadi. Tarixdan ma'lum va mashhur bo'lgan bu nomlarni matnda ko'rgan o'quvchi unga bog'liq voqealarni bilvosita qayta tiklaydi. Shuningdek, qasidadan olingan quyidagi parchada esa dunyo ilm-fani, xususan, matematika, astronomiya, geodeziya, geografiya, antropologiya, tarix, falsafa fanlarining asoschilari va buyuk namoyondalari *Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Forobiy, Mirzo Ulug'bek* kabi allomalarning ismlarini keltirish orqali o'zbekimning tomirlarida buyuklar qoni oqayotgan bir millat ekaniga urg'u beriladi. Bunday tarixiy shaxslarning nomlarini matnga kiritish orqali muallif asarning bosh g'oyasi – o'zbek xalqini ulug'lash, uni ko'klarga ko'tarish hamda o'zining shu millatga mansubligidan faxrlanish tuyg'ularini juda ta'sirchan ifodalagan:

*Al Beruniy, Al Xorazmiy,  
Al Forob avlodidan,  
Asli nasli balki o'zluq,  
Balki Tarxon, o'zbekim  
Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek  
Ko'ragoniy jadvalin,  
Sirli osmon tokiga ilk –  
Qo'ydi narvon, o'zbekim.*

O'zbekimning nafaqat ilm-u fanda, balki adabiyot va san'atda ham noyob iste'dodlarni yetishtirgan buyuk xalq ekanini ta'kidlash uchun shoir xalqimizning *Mir Alisher, Mirzo Bobur, Mashrab, Nodira, Furqat, Muqumiy* kabi taniqli ijodkorlarini esga oladi. Muallif tarixiy shaxslar nomlarini keltirarkan, ular bilan bog'liq tarixiy faktlarga murojaat qiladi. Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning vatandan uzoqda begona yurtlarni makon tutganidan bir umr fig'on chekib o'tgani, Furqatning ayriliqda yashashga majbur bo'lgani, Nodira va Muqimiyning esa o'z yurtida adolatsizlik, haqsizlikdan azoblanib yashagani haqidagi tarixiy faktlarni asar matniga mohirona singdirib yubora olgan.

*Mirza Bobur - sen, fig'oning  
Soldi olam uzra o't,  
Shoh Mashrab qoni senda  
Urdu tug'yon, o'zbekim.*

Natijada, bu tarixiy shaxslar va faktlar asarning ta'sirchanligini yanada oshirgan, kitobxon uchun esa ham estetik zavq, ham ensiklopedik ma'lumot bera olgan.

O'zbek xalqining tarixini Alisher Navoiy siymosidan ayro tasavvur qilish also mumkin emas.

*Mir Alisher na'rasiga  
Aks-sado berdi jahon,  
She'riyat mulkida bo'ldi  
Shoh-u sulton, o'zbekim.*

Shu o'rinda shoir jahonning mashhur shoirlari Pushkin, Bayron nomlarini ham keltirib, Navoiy ular bilan bellasha olishi, hatto ustun ekanligini va bundan g'urur tuyishini mohirlik bilan asarga singdirib yuborgan.

*Menga Pushkin bir jahonu  
Menga Bayron bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor,  
Ko'ksi osmon, o'zbekim.*

Qasidaning o‘zi butun boshli xalqning tarixini aks ettirsa-da, uning asosiy g‘oyasi quyidagi misralarda ko‘rinadi:

*Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak,  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o‘zbeğim.*

Ma‘lumki, Abulqosim Firdavsiy ulkan “*Shohnoma*” asari orqali fors sho hlari tarixini yoritgan. Shoir o‘z xalqining tarixini yozish uchun mingta Firdavsiy va, albatta, shuncha “*Shohnoma*” kerak bo‘ladi degan fikrni badiiy jihatdan mukammal tasvirlagan. *Firdavsiy* antroponimi orqali uning asariga, uning matniga ham ishora qilib, intertekstuallikni hosil qilgan.

Erkin Vohidovning boshqa she‘rlarida ham intertekstuallikning boshqa turlarini uchratishimiz mumkin. Xususan, maqol, matal kabilarni intertekst sifatida qo‘llab, go‘zal she‘rlar yaratgan.

She‘riy matnlarda maqollar to‘liq yoki bir qismi inerte kt sifatida uchraydi. Shu bois ham maqollarni matn ichida kelgan iqtibos sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi. Aksariyat hollarda she‘riy matnlarning ilk misralarida maqol keltirilib, keyingi fikrlar shu maqol mazmuni asosida shakllantiriladi. Bu esa intertekstning matn yaratuvchi funksiyasi mavjudligining yana bir isbotidir.

*Benajot ko‘nglimni qandoq  
So‘z bilan izhor etay?  
Qay iloj birlan ilojsiz  
Holatimoshkor etay?*

*Necha zahmatlar chekib ham  
Topmagach aqlu hushim,  
Qilmangiz endi nasihat,  
Yo‘qni qandoq bor etay?*

*Oshinolar qochdi mendan,  
Yuz o‘girdi g‘ofil el,  
Ne edi, ayting, gunohim,  
Men uni takror etay?*

*To‘g‘ri so‘z tuqqanga yoqmas,  
Haq ekan, e voh, netay,  
Do‘stni dushman qildim, endi,  
Dushmanimni yor etay [7].*

Erkin Vohidovning ijodiga mansub bu she'riy matnda intertekst sifatida "to'g'ri so'z tuqqaningga yoqmas" maqoli intertekst sifatida kiritilgan. Maqol bevosita she'riy matnning umumiy mazmuniga mos bo'lib, lirik qahramonning kayfiyatini, hayotidagi voqealarning sababini izohlash uchun muallif tomonidan qo'llangan. Shoir maqol orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini dalillashga harakat qilgan. Ya'ni bu o'rinda intertekstuallikning matn yaratilishidagi vazifasi yaqqol ko'ringan.

Shoir she'rlarida intertekstning sarlavha shaklidagi turini ham ko'p uchratamiz:

*Shum bola*  
*Shundoq dedi, qulluq qilib,*  
*Gapni qo'yib joyiga*  
*Yangi zamon Shum bolasi*  
*Yangi zamon Boyiga:*  
*"Qoshingizga yana keldim,*  
*Quloq soling, Boy ota,*  
*Sidqi dildan xizmat qilay,*  
*Ishga oling, Boy ota.*  
*Fazilatim ko'pdir, yana*  
*Aybimni ham aytganman.*  
*Lekin endi yangi zamon,*  
*Men yolg'ondan qaytganman" [7].*

Bu she'rga G'afur G'ulomning o'zbek kitobxonlari uchun yaxshi tanish bo'lgan "Shum bola" qissasining nomi sarlavha sifatida tanlangan. She'r mazmuni esa bevosita uning qahramoni xarakteri asosida, yanada aniqrog'i qissadagi Shum bola va Boy ota bilan bog'liq epizod asosida qurilgan.

"Shum bola" qissasi va unga bog'liq har qanday jumla yoxud qahramonlar allaqachon o'zbek kitobxonlarining xotirasida mavjud va matn mazmuniy idroki ham shu asosda qulaylashgan.

### **XULOSA**

O'zbek adabiyotida tarixiy voqealarga, buyuk shaxslar hayoti va ularning ijodiga oid hodisalarga ishora qilib, intertekstuallikni hosil qilish juda keng tarqalgan. Bu bir tomondan nasriy va nazmiy asarlarning g'oyasini kuchaytirib, ularning barchasi xalqimizning boy tarixini ochib berishga va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa kitobxonlarga berilgan badiiy matn yana ham oson va chuqur tushuniladi. Shu bois o'zbek matnlaridagi intertekstual birliklarni aniqlash va tahlil qilish tilshunoslik oldidagi muhim vazifalardan biridir. Chunki matnlar, xususan, badiiy asardagi intertekstuallikni to'g'ri tushunish asarni to'la anglashga keng yo'l ochadi. Shu jumladan, shoir Erkin Vohidov she'riyatini ham intertekstuallikka boy meros sifatida kitobxonlari uchun qomusiy ahamiyatga egadir va

uning matniy tadqiqi bizga zarur xulosalar, kerakli bilimlarni beradi. Shoir asarlaridagi intertekstuallikning kichik tadqiqi shuni ko'rsatadiki, ularda asosan xalqimiz hayotida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar, hammaga tanish voqea-hodisalardan matn ichiga kiritish ko'p uchraydi. Toponimlar, antroponimlar, folklor namunalari intertekstuallikka manba sifatida yetakchilik qiladi. Shoir ijodidagi intertekstuallikni yana ham chuqurroq tahlil qilish keying vazifalarimizdan biridir. Chunki badiiy matnlardagi bunday birliklar millat madaniyatining, tarixining ajralmas qismi hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арнольд, И.В. (1997) *Семантика. Стилистика. Интертекстуальность* Текст. И.В. Арнольд. Сб. ст.; СПб, Изд-во С.-Петербур. ун-та. С. 443.
2. Фатеева, Н.А. (1998) Типология интертекстуальных элементов и связей в художественной речи Текст, *Известия АН. Серия литературы и языка.* Ташкент.№5. С. 25 - 38.
3. Kristeva, J. Bakhtine, (1967) *le mot, le dialogue et le roman Texte.* J. Kristeva Critique,. № 239, pp. 465.
4. Yo'ldoshev, M. (2010) *Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.* Fil. fan.doktori... diss.Toshkent.
5. Тороп, П.Х. (1981). Проблема интертекста Текст. П.Х. Тороп , Текст в тексте: труды по знаковым системам; XIV. *Учёные записки Тартуского гос. универс.* Вып. 567. Тарту: Тарт. ун-т, С. 33-44.
6. Qurbonova, M., Yuldashev, M. (2014) *Matn tilshunosligi.* Toshkent.
7. Вохидов, Э. (2001) Сайланма. Учинчи жилд. Умрим дарёси. Тошкент: "Шарк". Б.527.
8. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 3(4), 259-263.
9. Xudoyberganova, D. (2010) *Badiiy matnning antroposentrik tadqiqi.* Fil. fan.doktori... diss . Toshkent.
10. qizi Xomidova, M. F. (2019). INTERTEXTUALITY AND LITERARY TRANSLATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 309-311.
11. Qizi, X. M. F., & Tursunova, L. (2022, December). INTERTEXTUALITY AND ITS SOURCES IN THE CREATION OF MUHAMMAD YUSUF. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 23.12, pp. 41-50).
- 12.[https://vuzlit.ru/878504/intertekstualnost\\_funktsii\\_hudozhestvennom\\_tekste](https://vuzlit.ru/878504/intertekstualnost_funktsii_hudozhestvennom_tekste)
- 13.<http://tafakkur.net/ozbegim/erkin-vohidov.uz>

## NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA AN'ANA VA INDIVIDUALLIK

**Xayrullayev Azamat Xoliqovich**

ToshDO'TAU o'qituvchisi

[azamatxayrulla@gmail.com](mailto:azamatxayrulla@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

**Ushbu maqolada yozuvchi** Normurod Norqobilovning hikoyalari tahlilga tortilgan, bo'lib ularda ana'naviylik va ijodiy individuallik xususida so'z boradi. Janr atamasi va uning adabiyotshunoslikda o'rganilishi xususida ham mulohazalar bildirilgan. Mazkur maqolada hikoya janrining xususiyatlari haqida ham to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, adib hikoyalarning kompozitsion o'ziga xosligi, sarlavha hamda ilk jumlaning poetik xususiyatlari o'rganiladi. Bulardan tashqari Normurod Norqobilov ijodi bugungi o'zbek nasri kontekstida olib qaralib, individual talqin muammosiga ham e'tibor qaratiladi. Kinoyaviylikning adib ijodidagi o'rni, shuningdek, obraz yaratishda adib uslubiy mahorati masalasi tahlil qilinadi. Hikoyaga sarlavha tanlashi boshqa adiblarnikidan biroz farq qiladi. Masalan, adib bir hikoyaga ikki xil nom qo'yadi yoki bir nomda ikki xil hikoya yaratgan-ki, biz adib ijodidagi bu jihatga alohida e'tibor qilishimiz zarurati tug'iladi. Maqolada sarlavha yaratish mahoratiga ham to'xtalib, tasniflanadi: birinchidan, sarlavha o'zgararsa ham ma'nosini qisman saqlanib qolgan hikoyalar, ikkinchidan, sarlavha o'zgarishi bilan asarda muallif nuqtai nazari keskin o'zgargan asar, uchinchidan, bir nomda ikki xil syujetdagi asar. Umuman olganda, maqolada adib ijodida an'ana va uslubiy o'ziga xoslikka e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** hikoya, janr, an'naviylik va individuallik, kompozitsiya, sarlavha, uslub, obraz.

### ABSTRACT

In this article, the stories of the writer Normurod Norqabilov are analyzed, and they talk about traditionalism and creative individuality. Comments were also made about the term genre and its study in literary studies. This article also discusses the features of the story genre. Also, the compositional uniqueness of the writer's stories, the poetic features of the title and the first sentence are studied. In addition to these, Normurod Norqabilov's work is considered in the context of today's Uzbek prose, and attention is paid to the problem of individual interpretation. The role of irony in the literary work, as well as the question of the writer's stylistic skills in creating an image

are analyzed. Choosing a title for a story is a little different from that of other writers. For example, a writer gives two different names to one story or creates two different stories with the same name, so we need to pay special attention to this aspect of the writer's work. The article also focuses on the skill of creating a title and classifies it: firstly, stories whose meaning is partially preserved even if the title changes, secondly, a work in which the author's point of view changes sharply in the work due to the change of title, and thirdly, stories with two different plots under the same title. work In general, the article focuses on the tradition and stylistic uniqueness of the literary work.

**Keywords:** story, genre, traditionalism and individuality, composition, title, style, image.

## KIRISH

O'zbek hikoyachiligi tarixi xalq nasri va mumtoz adabiyotimiz zamiridagi hikoyatlarni istisno etganda XX asrning ilk choragi, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat ijodiga borib taqaladi. Keyingi davr hikoyachiligi Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor singari adiblar ijodida yuksaldi. O'tgan asr oxiri XXI asrning boshida Said Ahmad, Asqad Muhtor, O.Yoqubov, Sh.Xolmirzaev, O'. Hoshimovlar esa badiiylikning yangi manzil va manzaralarini o'z asarlarida aks ettirdi. Istiqlol yillarida poetik tafakkur yangilanib, ushbu janr M.M.Do'st, A.A'zam, E.A'zam, O.Otaxon, X.Sultonov, N.Norqobilov, Nurulloh Muhammad Raufxon, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdani, Sh.Hamro, I.Sulton, L.Bo'rixon, B.Abdurazzoq kabi yozuvchilar ijodida o'zgacha shakl va uslubga ega bo'ldi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hikoya ulkan hayot voqeligidan kichik bir epizodni epik planda aks ettirivchi, zamonaviy adabiyotning faol janrlaridan biri. Unda qalamga olinadigan hayot voqeligi fonida qahramon ruhiy olamini tasvirlash, xarakterini ochish hikoyaga xos yetakchi jihat ekanligi ham o'quvchiga sir emas. Adabiyotshunosligimiz turli ilmiy muammolar yuzasidan o'zbek hikoyachiligini tadqiq etgan va bu jarayon davom etmoqda.

Janr atamasiga haqida jahon adabiyotshunosligida turli talqinlar mavjudligi ma'lum, albatta. Turli tadqiqot va istilohiy lug'atlarda mazkur tushuncha xususida olimlar o'z qarash va yondashuvlarini ilgari surganlar. O'zbek adabiyotshunoslari N.Hotamov va B.Sarimsoqov "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da "badiiy asarlarning o'ziga xos kompozitsion qurilishga, badiiy tasvir prinsiplari va vositalariga, bayon usullariga, hayotiy qamrov imkoniyatlariga ko'ra turkumi"[2] deb yozgan edi. Shuningdek, A.Qozixo'janing "Qissa janri to'grisida"

nomli tadqiqotida, D.Quronovning adabiyotshunoslikka oid darslik va lugʻatlarida alohida soʻz yuritilgan.

“Oʻzbekistonda hikoya janrini tadqiq etish, asosan, ikki yoʻnalishda amalga oshirilmogda: muayyan tarixiy davrda epik janrlar holatining umumiy tahlili (N.Vladimirova, M.Sultonova, X.Doʻsmuxamedov); badiiy metod va uslub nuqtai nazaridan (I.Sulton, U.Normatov, N.Rahimjonov, B.Nazarov). XX asr oxirlarida oʻzbek adabiyotshunoslari Sharq adabiyoti janrlari poetikasini faol tadqiq qildilar, hikoya janri nazariyasi madaniyatshunoslik yoʻnalishida talqin etdi (H.Boltaboyev, D.Quronov)”[1].

## NATIJALAR

Ilk hikoyasini 1982-yilda eʼlon qilgan yozuvchi Normurod Norqobilovning bugungi oʻzbek hikoyachiligida voqelikka munosabati va obraz yaratish, uslubi kompozitsion oʻziga xosligi nimada koʻrinadi? Avvalo, aytish kerak-ki, adib insonni tabiat bilan bir butunlikda tasvirlaydi. Inson va tabiat masalasi uning ijodiga xos asosiy belgi. Yozuvchi yaratgan hikoyalarining qahramonlari insondan tortib hayvonot va nabotot dunyosini ham qamrab oladi. Shu sababdan yozuvchining obrazlar olamini quyidagicha tasnif etish mumkin. Birinchi hikoya qahramoni sifatida inson va uning nigohi markazda turadi. Bular:

- bola obrazi (adibning yigirmadan ortiq hikoyasi qahramoni bolalar);
- chol obrazi (“Qoʻshiq”, “Chol va ilonlar”);
- ijodkorlar obrazi (“Tugatilmagan surat”, “Quvonchli kun”, “Quyoshi botmaydigan yurt”, “Handaqqdagi besh qitʼa”);
- orkash ayollar (“Tungi mehmon”, “Buron qoʻpgan kun”) obrazlaridir.

Ikkinchi qahramon sifatida oʻsimlik, daraxt yoki hayvon obrazi olinadi va hayot voqeligi ular nigohi orqali kuzatiladi. Masalan:

- it (“Qizcha”, “Oq boʻyin”);
- dala sichqoni (“Doʻngkala”);
- yumronqoziq (“Yozning birinchi kuni”);
- gul (“Yetim qolgan gullar”);
- daraxt (“Keksa tut”) kabi obrazlar.

Bola yoki chol singari qahramonlar ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmaydigandek koʻrinsa-da, adib ular nigohi orqali hayot voqeligini teran kuzatadi. Ayni shunday ijtimoiy hayot voqeligini kuzatish vazifasini yozuvchi *it*, *daraxt*, *yumronqoziq* obrazlariga mohirlik bilan yuklaydi-ki, oʻquvchi koʻz oʻngida real turmush voqealari gavdalanadi. Bu holatni biz adibning “*Tugatilmagan surat*” va “*Quyoshi botmaydigan yurt*” hikoyalarida rassom, “*Quvonchli kun*” hikoyasida shoir obrazi orqali ham koʻrishimiz mumkin.



## MUHOKAMA

Bugungi kun o'zbek nasrining M.M.Do'st, E.A'zam va L.Bo'rixon kabi adiblari ijodida **kinoyaviy** uslub yetakchilik qilsa, N.Norqobilovning "*Quvonchli kun*", "*Tugatilmagan surat*", "*Tepalik*", "*Shim yohud xotinlar janjali*" va boshqa hikoyalarida ham muallifning kinoyaviy munosabati, asar qatiga singan kinoyaviy ruh aniq sezilib turadi. "Quvonchli kun" hikoyasidan olingan parchaga e'tibor qaratamiz.

*"Shoirni kaltaklashdilar*

*Birinchi she'riy kitobi chiqqanidan o'zida yo'q quvonib, maqtangani tug'ilib o'zgan qishlog'i tomon yo'l tortganda, yo'lda kaltaklashdilar uni.*

*U odamlarni behad sevardi va hatto kitobining nomi ham aynan shu ma'noda edi: "Muhabbatim sizga odamlar". Xullas, ellikdan ziyod yashil jildli kitobchasini qora tusdagi charm sumkasiga joylab yo'lga chiqqandi"*[3]. Hikoyaning ilk jumlasidan boshlangan kinoyaviylik, asarda qahramon xarakterini ochishda ham muhim rol o'ynaydi. Muallif qahramon xarakteriga nisbatan samimiy kinoyaviy munosabatda bo'lsa, *Mutal sariq, Navcha* va "*bekati ahliga*" nisbatan esa oshkora nafratini izhor qiladi. Buni Shoirning (muallif qahramoniga ism bermasdan Shoir deb ataydi) nutqi orqali bayon qiladi, "*-Odam emas, qul ekansizlar! Ammo -lekin... suf-f, sizlarga! Ongi ojiz yelpataklar!*" Hikoyada "muallif butun asar voqeligiga yoki uning bir kismiga (ayrim xarakterlarga) nisbatan kinoyaviy munosabatda bo'ladi, asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtai nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi. Kinoyaviy munosabat ideal va voqelik o'rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan tug'iladi. Shunga ko'ra, kinoyaviylikning maksadi fakat kulgi xosil kilishgina bo'lib qolmay, vaziyatning qanchalik jiddiyli va hatto fojeiyliгинi ham ta'kidlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi"[4]. Hikoyada qahramonning ayanhli holatidan ko'ra, olamonning holati fojeaviy tus oladi-ki, muallifning badiiy niyati ham aynan hamisha loqayd va tomoshaga o'ch olomonning tipik qiyofasini chizishdir. "*Quvonchlik kun*" hikoyasida muallif ilojsizlikdan avtobus kutib turgan olomonni "bekati ahli" deb atashi, "*Tugatilmagan surat*"da Asadning ayvonga chiqishiga qarshilik qilgan uch-to'rt yigitni "ayvon ahli" deb ataydi. Shu jumalarning o'zidayoq muallifning jamiyatga, olamonga nisbatan jiddiy kesatig'i, kinoyasi ko'rinib turadi. Ayniqsa, "*Tugatilmagan surat*" hikoyasida qahramoni Asadning muhit qurboni bo'lishi adib tomonidan mohirona tasvirlanadi. Asarda "*...janjalga sabab bo'lmish voqea shu qadar jo'n, shu qadar arzimas ediki, qani endi, darrov esga tusha qolsa*". Haqiqatdan ham qo'shnilar o'rtasida doimiy janjalga sabab bo'ladigan voqealar juda jo'n, biri yotoqxonada Asadga qo'shimcha xona berilgani, bir uni tog'larni ko'rish uchun ayvonga chiqqanda "ayvon ahli" tomonidan ayvonni qizg'anish. Ammo mana shu arzimas voqealar sabab Asad muhit qurboniga aylanib, o'zi istamagan, kutmagan holda qotilga aylanadi. Normurod

Norqobilovning *“Tepalik”* hikoyasida ham asar personajlari va muhitga muallifning kinoyaviy munosabati ko‘zga tashlanadi.

*“-Balki, ertaga o‘ sarmiz! -dedi bir zumga taysallab.*

*-Yo‘q bugun o‘ samiz! -Nortoji polvon oyoqqa qalqdi. -O‘smasam, o‘laman!*

*-Men ham o‘laman! -deya uni quvvatladi Sharif hanuz hech narsadan hech narsa tushunmagan esa-da, qatordan qolgisi kelmay.*

*-Qayoqqa ... o‘ samiz? -dedi Samandar qo‘li laganda goh unisiga, goh bunisiga alanglab”[3].*

N.Norqobilovning *“Shim yohud xotinlar janjali”* hikoyasida ovsinlar Zeboxon va Oynisa o‘rtasidagi janjal ham *“Tugatilmagan surat”* hikoyasidagidek, jo‘n bir voqeadan, hovli o‘rtasiga ilib qo‘yilgan shimdan boshlanadi. Ayni hikoyada adib *shim* detali orqali asar voqeligini qurib, personajlarning dialoglari bilan ularning xarakterini chizadi. Ushbu hikoyada ham kinoyaviylik ko‘rinib turadi, aytilganidek, muallif personajlar dialoglaridan tashqari ularning xatti-harakatlariga ham kinoyaviy munosabatda bo‘ladi.

*“-Nima bu?*

*-Shim, -dedi Oynisa goh unga, goh shimga hayron boqarkan, so‘ng keskin qo‘shib qo‘ydi:-Erimniki...*

*-Haliyam o‘ynashingizniki deytoganim yo‘q!-Zeboxonning tomonga cho‘zilgan qo‘li tag‘in quymichiga qaytib, xushbichim qomati qayta “F” shaklini oldi. - peshonamga eringizni shimini osib, bu bilan, sen ham odammi demoqchimisiz? Shunaqami? Hali biz odam bo‘lmay qoldikmi?*

*Oynisa hayratdan dong qotdi.*

*Keyin quyi labi shilvirab, tag‘in shimga boqdi.*

*Buni qarangki, aksiga olib, ayni shu tobda birdan dimog‘i qichishib golsa vo‘ladimi. Oqibat, o‘zini tutolmay, shishgan etdor aftini ajabtovur tarzda bujmaytirib, qattiq aksirib yubordi[3].*

Bundan tashqari yuqorida keltirgan *“Quvonchli kun”* hikoyasidan olingan parchada adib uslubiga xos bo‘lgan yana bir jihat ko‘zga tashlanadi. Bu jihat ilk jumladan o‘quvchini badiiy asar voqeligiga shiddat bilan olib kirish, kitobxon diqqatini susaytirmaslik, va yana *“Quvonchli kun”* hikoyasi singari personajlarni tasvir maydoniga chiqarib, o‘zlarini namoyish qilishlari uchun muallif tomonidan imkoniyat berilishidir. Adibning *“Quvonchli kun”, “Keksa tut”, “Judolik quvonchi”, “Dashtda”, “Mung”* va boshqa o‘ndan ortiq hikoyalari bunga misol bo‘la oladi. Demak, o‘zbek adabiyotining mohir hikoyanavislari A.Qahhor va Sh.Xolmirzaev, M.M.Do‘st uslubiga xos bo‘lgan bunday jihat N.Norqobilov ijodiga ham begona emasligi ma‘lum bo‘ladi.

Qo'shjonov M. "Abdulla Qahhor mahorati" nomli monografiyasida shunday yozgan edi: *"Bu yerda Abdulla Qahhor uslubiga xos quyidagi xususiyatni ta'kidlab o'tishni lozim ko'rardik. Gap shundaki, u asar ma'nosini ko'proq obrazlarning xatti-harakatlari orqali ko'rsatuvchi yozuvchi. Uning asarlari, aksariyati ilk sahifalardan oq obrazlarning xatti-harakatlari tasviridan boshlanadi. «Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan...» degap so'zlar bilan «Anor» boshlanadi. «Bemor», «Sotiboldining xotini og'rib qoldi...» degan so'zlar bilan boshlanadi. «O'g'ri»ning boshlanishi ham shunday: «Kampir tong qorong'isidan xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi...», «Qadoqchi Hamroqulnpng tobi qochdi»— bu «Tomoshabog'»ning birinchi so'zlari. «Shunday qilib, Ahmad polvon so'yiladigan bo'ldi» — «Ko'rko'zning ochilishi»dagi birinchi jumla. Xullas, Abdulla Qahhorning ko'pchilik asarlari shu xilda — muhit tasviridan emas, balki obrazlarning xatti-harakati yoki holati tasviridan boshlanadi"* [5].

N.Norqobilov ijodida esa biz ilk jumlaning shunday tasniflashimiz mumkin bo'ladi:

1. Asarda ro'y beradigan asosiy voqelikka aloqador muhim xabar (Quvonchli kun, "Judolik quvonchi", "Keksa tut", "Olim o'g'il", "Dashtda", "Mung", "Quyosh tutilgan kun", "Quduq", "O'g'ri", "Alp onadan", "Qishloq chetidagi yolg'iz it", "Olma o'g'risi", (Qaravultepa).
2. Bevosita personajlar nutqi bilan boshlanadigan hikoyalar ("O'g'il", "Erkak", "Kamalak", "Tavatosh", "Qiz o'g'irlash", "So'ngi surat", "Xesh").
3. Qahramon ruhiyati tasviridan boshlanadigan hikoyalar ("Ro'molcha", "Tepalik", "Oriyat", "Unutilgan qo'shiq", "Bo'taloq", "Qabr tosh", "Enatepa").

